

11-sinf Adabiyot 1-BSB
(Ixtisoslashtirilgan maktablar uchun)

Insho mavzulari

1. “Devon-u lug‘ot at-turk” – qomusiy asar.
2. “Devon-u lug‘ot at-turk” da adabiy janrlarning badiiy talqini
3. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida or-nomus tuyg‘ularining ifodasi.
4. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ayollar timsoli
5. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ona yurt va milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ularining ifodasi.

Taqdim qilingan insho mavzulari murakkab reja asosida yoziladi. Epigراف qo‘llash maqsadga muvofiq.

Insho yozish uchun kalit so‘zlar:

I Kirish qismi uchun.

O‘qib tugatdik, barchaga ma’lumki, hech kimga sir emaski, bilamizki, muhim o‘rin tutadi...

II Asosiy qism uchun.

Fikrimcha, menimcha, nazarimda, xususan, chunonchi, zero, shu bois, e’tiborli jihati shundaki, jumladan...

III Xulosa qismi uchun.

Xulosa shuki, xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, demak, xullas, umuman olganda

Insho yozish uchun ko‘rsatmalar:

- *Fikr-mulohazalaringizni badiiy uslubda bayon qiling.*
- *Fikrlaringizni mantiqiy izchillikda, adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda ifodalang.*

Insho uch tarkibiy qismdan iborat bo‘lishi lozim:

I. Kirish. Inshoning kirish qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) kirish qismi to‘rt-beshta jumladan iborat bo‘lishi lozim;
- 2) insho kirish qismida dastlab umumiy qarashlaringizni bayon qiling. Keyin mavzuga yaqinlashtiruvchi jumla keltiring;

II. Asosiy qism. Inshoning asosiy qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) asosiy qismda tanlab olgan mavzuingizdan kelib chiqqan holda “Devon-u lug‘ot at-turk” yoki “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” asarlaridan biriga umumiy tavsif orqali kirish qiling;
- 2) tanlab olgan mavzuingiz doirasida fikr mulohazalaringizni keltiring;
- 3) mavzuni bugungi kun bilan bog‘lashga harakat qiling;
- 4) fikrlaringizni maqol, ibora, aforizm kabi turg‘un biriklmalarni keltirish orqali mavzu bilan uzviylikni ta’minlagan holda yoriting.

5) bayon qilinayotgan barcha fikr-mulohazalar faqat mavzu doirasida bo‘lishi lozim.

III. Xulosa. Inshoning xulosa qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) asosiy qismda ifodalangan fikr-mulohazalarni umumlashtiring;
- 2) xulosa to‘rtta-beshta jumladan iborat bo‘lishi lozim.

Inshoni baholash mezonlari (50 ball)		1 ta	2 ta	3-4 ta	5-7
Imlo xatolari	10 ball	10 ball	9 ball	8 ball	6 ball
Uslubiy xatolar	5 ball	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball
Tinish belgilari	5 ball	5 ball	4 ball	3ball	2 ball
Mavzuning dalillar asosida(asardan parcha) yoritilishi	10 ball				
Asardan olingan parchalar to‘g‘ri tahlil qilinsa, o‘z qarashlari mos dalillar bilan asoslab berilsa, epigraf inshoga mos tarzda tanlangan bo‘lsa va tuzilgan reja mavzuga to‘la mos bo‘lsa	9-10 ball				
Asardan olingan parchalar qisman tahlil qilinsa, o‘z qarashlari mos dalillar bilan asoslab berilsa, epigraf inshoga mos tarzda tanlangan bo‘lsa va tuzilgan reja mavzuga qisman mos kelsa	7-8 ball				
Asardan olingan parchalar keltirilgan, biroq o‘z qarashlari mos dalillar bilan asoslab berilmasa, epigraf inshoga mos emas va tuzilgan reja mavzuga qisman mos kelsa	4-6 ball				
Badiiyligi (so‘z qo‘llash mahorati, she’riy parchalar, maqollar, aforizmlarni qo‘llash)	10 ball				
Iboralarni, sifatlashlarni, ko‘chma ma’noli, sinonim, antonim so‘zlarni o‘rinli qo‘llagan bo‘lsa	9-10 ball				
Sinonim so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llagan bo‘lsa	7-8 ball				
Fikr bo‘yoqsiz, shunchaki ma’lumot sifatida qo‘llangan bo‘lsa	6-5 ball				
Husnixat	3 ball				
Husnixat aniq va ravon, tushunarli bo‘lsa	3 ball				
Husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan bo‘lsa, ravon o‘qish biroz qiyin bo‘lsa	1 ball				
Mustaqil fikr bildira olish xususiyati	5 ball				

Har bir ma'lumot izohlanib, xulosa, qiyosiy tahlil qilinib, o'z munosabati ifodalangan bo'lsa,	5 ball				
Mavzu bo'yicha ma'lumotlar darslik asosida ifodalanib, o'quvchining o'z dunyoqarashi ifodalanmagan bo'lsa	3-4 ball				
Qolgan holatlar	1-2 ball				
Ozodalik (bo'yamasdan yozish)	2 ball				
JAMI:	50 ball				